

**SHOHSANAM KOMILOVA**

**SEVINCH KAMALAGI**

**ERTAK VA SHE'RLAR**

**Qarshi  
“Nasaf” nashriyoti  
2005**

82.3(59)

*Bolalikning masrur va suronli olami. Unda hamma narsa beg'ubor va go'zal. Yosh ijodkor Shohsanam Komilovaning ushbu "Sevinch kamalagi" deb nomlangan to'plamida bolalikning pokiza olamidagi tuyg'ular qalamga olingan.*

Muharrir: Zebo OMONOVA.

10 31457  
091



10

K 4702620202-326 336-2005  
376 (03) 2005

© Sh. KOMILOVA - 2005

ISBN 5-7323-0505

## MARVARID TOMCHILAR



Bolalikning pokiza va sirli olamida she'r va she'riyat yashaydi. Shu bois ham qo'liga qalam olib dunyoni she'riy idrok qilmoqqa chog'langan o'quvchilarning sayi harakatlari tahsinga loyiq. Ularni qo'llab-quvvatlamoq mas'ulligi kattalar zimmasida. Ana shunday iqtidor sohibalaridan biri Komilova Shossanam Murodulla qizi. U 1995-yil 5-avgustda Qashqadaryo viloyati, Koson tumani quyi Obron qishlog'ida tug'ilgan. 1997-yilda otasi Avliyaqulov Murodulla avtohalokat tufayli hayotdan erta ko'z yumgan. Bobosi va buvisi nabiralarini yerusi ko'kka ishonmasdan, farzandlaridan ziyoda qilib voyaga etkazmoqdalar. Bobosi ota o'mida ota, buvisi ona o'mida ona bo'lib tarbiyalab kelmoqdalar.

Shossanam 2001-yilda Karim Rahmonov nomli mактабning 1-sinfiga o'qishga bordi. Zehni o'tkirligi uchun yoshi yetmasdanoq maktabda erta qabul qilindi. U sinfning eng a'luchi, ilg'or va talantli o'quychisi. Nafaqat sinfda, balki muktabda ham eng ko'zga ko'ringan o'quvchilardan biri. Barcha fanlarni a'llo baholarda o'zlashtira oladi. Kelajakdagagi orzusi jurnalist bo'lib, el hurmatiga va duosiga sazovor bo'lish. Barcha do'stlari unga hurmat va havas bilan qaraydilar. U barchaga birdek mehribon.

Maktabda bo'ladigan har bir bayramlarda o'zining yozgan she'rlari bilan qatnashib keladi. To'garaklarning eng faol o'quvchilaridan hisoblanadi. Maktabda o'tkazilgan kichik olimpiiadada ishtirot etib, birinchi o'rinni qo'lga kirtidi. Tuman olimpiadasida ishtirot etib, oliy o'rinni egalladi.

Komilaning yozganlarida beg'ubor bir bolalik nafasi ufurib turgan samimiyat bor. Men uning o'y-xayollarini marvardi tomchilariga o'xshatgim keldi. Bu oddiy fikrlar sofligida qizaloq qalbining umid va ishonchga to'la bir parchasi yashamoqda. Ishonamanki, Shossanam bilimini oshirish ustida mumtazam ishlasa, albatta kelgusida u o'z orzusiga etadi.

**Temirpo'lat Tillayev,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasining a'zosi.**

## ERTAKLAR

## BAXTIYORNING JONIVORLARI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda Baxtiyor degan bola bor ekan. Ota-onasi uni juda yaxshi ko'rgani uchun ko'plab uy hayvonlari olib bergan ekan. Baxtiyor bu hayvonlarni ya'ni jonivorlarini juda yaxshi ko'radi. Baxtiyor ularni juda yaxshi ko'rgani uchun och qoldirmaydi. Darvoqe, Baxtiyorning jonivorlari qandayligiga qiziqayotgandirsiz? Qiziqayotgan bo'lsangiz, marhamat, eshiting: Baxtiyoming tovug, xo'roz, ho'kiz, sigir, ikkita kuchuk, qo'y, qo'chqor va ko'plab quyonchalari bor ekan. Baxtiyor mакtabda o'qiydi. U 4 " - sinf o'quvchisi, uning partadoshi Rustam Boltayev. Baxtiyor Rustam bilan juda yaqin do'st. Baxtiyorlarnikiga Rustam har kuni borib turar edi. Baxtiyordan o'r ganaman deb. Rustam shu bahonada Baxtiyoming jonivorlarini ko'zdan kechirardi. Baxtiyorning jonivorlariga uyidagi joy yetishmasdi. Shuning uchun ham bir kuni Baxtiyor dadasidan so'radi: - Dadajon, iлtimos, menga olib bergan jonivorlarga uyimizdagi sharoit va joy yetishmaydi. Shuning uchun menga kattaroq yer ajratib bering, va uning ichiga ko'plab uychalar qurib, bitta-bitta xonaga ajrating, mening jonivorlarim goh uyning ichida, goh tashqariga yursin,-dedi.

Dadasi Baxtiyorni yaxshi ko'rgani uchun bunga rozi bo'libdi. Baxtiyor juda xursand bo'ldi.



## HUNARSIZ KISHI O'LIMGA YAQIN

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh va uning bir qizi bor ekan. Ularning bir qizi bo'lgan ekan. U hech qachon qishloqni ko'magan ekan. U qishloqni ko'rib aylanib kelaman desa, otasi bunga ruxsat bermas ekan. Nimaga deysizmi, chunki qishloqda bezorilar ko'p, ular qizimni bir nima qilib qo'yishi mumkin ber ekan. Bir kuni podshoh kitob o'qib o'tirgan ekan, kitobning bir joyidan "Hunarsiz kishi o'limda yaqin" degan gap chiqib qolibdi. Ha, yaxshiyamki qizimni qishloqqa qo'ymagan ekanman uning hunari yo'q. Borib qiziga debdi: "Agarda qishloqqa bormoqchi bo'lsang, bir hunar o'rgan". Qizi hech qancha savol bermay, hunar topish uchun o'ylanib qolibdi. U taxtda o'tirib atrofiga qaragan ekan, ko'pgina chiroyli rasmlarni ko'ribdi. Uning xayoliga rassomlik ham bir hunar-ku, degan fikr kelibdi va rassomlikni o'rganmoqchi bo'libdi. Dunyodagi eng go'zal rasm chizadigan rassomni chaqiritribdi. Rassomga debdi: "Agarda menga rassomlikni o'rgatsangiz, sizga ming tillo tanga beraman", - debdi. Rassom jon deb rozi bo'libdi va malikaga o'n kun mobaynida rasm chizishni o'rgatibdi. Mana, malika ham bir hunar o'rgandi. Endi otasidan ruxsat so'rasha bo'ladi. Malika otasiga: "Otajon, mana siz aytgan o'sha hunaringizni o'rgandim. Endi ketsam ham bo'lar", -debdi.

-Ha, qizim, ketsang bo'ladi, - debdi podshoh.

Qiz qishloqni ko'radigan bo'libdi. O'ylabdiki, mening kiyimimni ko'rgan odamlar oyog'imga bosh egadi. Bundan saqlanish uchun janda kiyim kiyib olib, qishloqqa jo'nabdi. Qishloqning har bir yerini ko'rib chiqib o'rtafiga kelib qolganda yura-yura holdan toyibdi va ochiqibdi. Keyin novvoydan kulcha sotib olibdi. Novvoyna pul emas, oltin tanga beribdi. Novvoy bu pulni qayerdan oldingiz, desa, malika: "Podshohdan oldim", - debdi va yo'lida ketaveribdi. Bir zumda malikaning shu gapi butun qishloqqa tarqalibdi. Bu qishloqning bir guruh qaroqchilari bor ekan. Qishloqdagi odamlar qatorida ulaming qulog'iga ham bu gap yetib boribdi. Malikadan oltin tangalarini tortib olmoqchi bo'lishibdi va uni tutib olib undan oltin tangalarini talab qilishibdi. Qiz esa menda oltin tanga yo'q, sarflaganim uchun qolmadni, debdi. "Agar topib bermasang, seni o'ldiramiz", - deyishibdi qaroqchilar. Malika: "Bu oltin tangalami podshohga bir chiroyli rasm chizib yuborganim uchun u menga ming oltin tanga bergandi, - debdi. Xohlasangiz, men sizga bir rasm chizib beraman.

- Mana shu hunaring bo'Imaganda biz seni o'ldirgan bo'lardik, - debdi qaroqchilar. Tezroq rasm chiz, tezroq bo'l, - deyishibdi ular. Malika: Qanday qilib rasm chizaman? -Axir, nima, rasm chizolmaysanmi?



- Chizolaman, lekin menga bo'yoq, qalamlar kerak-da.
- Hozir olib kelamiz, - deb ko'pgina qalam olib kelishibdi.

Malika rasm chiza boshlabdi. Mana, rasmni tugatdi. Qaroqchilarga berishdan oldin o'zi chizganligini bildirish uchun muhrini qo'yibdi va qaroqchilarga beribdi. Qaroqchilar o'zlarini aslzodaday ko'rsatishib, podshohga uchrashibdi. "Bu rasmga qarang, bunga qanday baho berasiz", -deyishibdi. Podshoh uni sinchikab ko'ribdi. Qarasaki, qizining muhri bor. Buni ko'rgan podshoh ulardan so'rabi: "Qani, bu rasmni kim chizdi?-debdii. Qaroqchilar: "Bizning singlimiz", -deyishibdi. Podshoh: "Qani, buyoqqa singlingizni olib keling," - debdi. Qaroqchilar züdlik bilan malikani olib kelishibdi. Podshoh: "Ey ayyorlar-ey,aldoqchilar-ey,-debdii,-axir, bu mening qizim-ku," -debdii. Qaroqchilar o'z qilmishlariga jazo olibdilar.

### **MUSHUKCHANING ORZUSI**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda, katta qishloq tomonda Aziz degan bola yashar ekan. Uning bir mushukchasi bor ekan. Aziz o'sha mushukchaning ismini "Zema" deb atarkan. Mushukcha juda boshqacha edi. Bir kuni Aziz Zemani mактабга olib bordi. U yerda o'quvchilar Zemani rosa o'ynashdi. Hatto uni



o'pib qo'yishdi. Ularning o'qituvchisi Azizga ko'p narsalami o'rgatar ekan. O'sha paytda Zema o'ylab qoldi: "Men katta bo'lganimda mushukchalarga murabbiy bo'laman". Azizga dedi: "Men katta bo'lsam, mushukchalar maktabini o'qituvchisi bo'laman. Jajji-jajji tushukchalarga ilm berib, ularga odam tilida gaplashishni o'rgatib boraman. Keyin ular odamlar bilan so'zlashib yuradigan bo'ladilar. Undan keyin barcha ona mushuklar bolasini menga ishonib beradilar", -dedi. Bu fikrni eshitgan Aziz hayron bo'ldi.

Mushukchamga shunday fikrlar bor ekan, - dedi va chopib borib ota-onasiga aytdi. Azizning dadasi: "Mushukchangni bu fikri juda to'g'ri, deb xoxolab kulib yubordi. Judayam to'g'ri, - deb gapga qo'shildi onasi. Shunday qilib o'sha orzuli mushukcha ko'z yumib ochguncha katta bo'lib qoldi. Zema mushukchalogida orzu qilgan narsaga erishdi. Zema endi o'qituvchi bo'ldi. Jajji-jajji mushukchalami o'qitib, odamlar bilan mushukchalar hamkor bo'lib yashabdi. Hamma yoq osoyishta bo'lib, tinch yashabdi va murod-maqsadiga yetibdi.

### **UCHALA DO'ST**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda katta qishloq tomonda bir-biridan ziyrak, bir-biridan epchil va bir-biridan a'luchi uch do'stlar yashar ekan. Birining ismi Baxtiyor, birining ismi Bahodir,



birining ismi Bunyod ekan. Ular juda qalın do'st ekan. Bir kuni Bunyod kasal bo'lib qolibdi. Baxtiyor bilan Bahodimi vahima bosibdi. Bunyodning uyiga yugurishibdi. Qarasalar, Bunyod kasal bo'lib yotibdi. Ularning o'qituvchisi so'radi: "Bunyod qayoqda?"

-U uyida kasal bo'lib yotibdi, - sekin javob berdi Baxtiyor. "Bolalar, bugun darsdan keyin Bunyodlarnikiga boramiz,"-debdi o'qituvchisi. "Xo'p bo'ladi", -deyishdi bolalar. Ustozi aytganidek, darsdan keyin Bunyodnikiga borishga tayyorgarlik ko'rishdi. Bunyodga albatta biron narsa olib borish kerak.

-Voy, esim qursin, -deb yubordi Bahodir. Axir, bugun Bunyodning tug'ilgan kuni-ku! Ustozi: "Shuning uchun ham, Bunyodning kasalligi uchun ham ko'rgani borayapmiz-da", -dedi. -Bunyodga sinfimiz nomidan birorta sovg'a olib boramizmi, - deb so'radi. Baxtiyor: "Albatta olib boramiz", -dedi. Ustozi: "Men Bunyodga nima sovg'a qilishni bilaman", -dedi. Bahodir: "Nima ekan?". Baxtiyor: "Albatta badiiy kitob-da", -dedi. "To'g'ri aytasan", -dedi ustoz. Ular Bunyodlarnikiga kelishdi. Baxtiyor dedi: Men o'zim chaqiraman, dedi-da chaqirishga shoshildi.

-Bunyod, Bunyod. Chaqiriqdan Bunyodning onasi hovliqib chiqdi. Voy, sizlarni, kuttirib qo'ymadimmi, -dedi:

Yo'q, aslo, kuttirganingiz yo'q. O'zi hozirgina keldik.

-Kiraqolingga, kiringlarga, -dedi Bunyodning onasi.

Ular Bunyodning o'zi qani, deb baravariga so'rashdi.

-O'g'lim, turaqol, sinfdoshlarining keldi.

Bunyod darrov turib kim u? - dedi. Bizmiz, do'stim Bunyod.

Yaxshimisan o'zi?

-Ha, yaxshiman, chidasa bo'ladi. O'zlarining-chi yaxshimisizlar, tabriklaymiz.

-Nega?

-Axir sening tug'ilgan kuning-ku!

-Ha, darvoqe, esimdan chiqibdi. Kitobni ko'rgach: voy, rahmat! Bunaqangi kitobni hech qachon o'qimaganman, - dedi Bunyod. Ular kelib-ketishgandan so'ng bir kun o'tar-o'tmas Bunyod tuzalib ketdi. Endi oldingiday uchala do'st baxtli-saodatli umr kechira boshlashdi.

### **QODIRJONNING SHO'XLIGI**

Qodirjon juda sho'x bola. Yo'lda ham, mактабда ham birovlarga sho'xligini ko'rsatadi. Maktabga borganda u bilan o'tiradigan qizga tinchlik bermaydi. Sinfdoshlari ham undan bezor ekan. U oila a'zolarini ham tinch qo'ymaydi. Bir opasiga yopishsa, bir akasiga yopishadi.



Dadasining ustiga chiqib o'ynaydi. Onasiga osiladi. Shunday qilib, sho'xligi bir jahon, qurmag'urning. U mактабдаги do'stлarini sal narsaga uradi, yig'lab qolgandan so'ng astagina hazillashdim, deb qo'yadi. Qodirjon o'z qilmishidan afsus chekayotgandek yerga qarab qoladi. Uni ko'rgan har bir bolani ko'ngli yumshab ketadi. Bir kuni bir qizcha yo'lda ketayotgan ekan. Qodirjon atayin uni turtib o'tib ketdi. Shunda qizcha jahli chiqib, ko'zingga qara degan edi, Qodirjon chopib kelib o'sha qizchani boshiga bir urdi. Qizcha yig'lab qoldi. Qodirjon esa baqrayib ketaverdi. O'sha qizchaning boshi birdan og'rib qoldi. Ota-onasi kasalxonaga olib borishdi. Shifokor shunday debdi: "Qizingizning boshi lat yegan. Uni kimdir urg'an", -debdii. Buni eshitgan ota-ona qizidan so'rashibdi: "Qizim, mabodo biror bola boshingga urgani yo'qmi?"

Buni eshitgan qizcha yo'lda bo'lган voqeани oqizmay-tomizmay aytib beribdi. Qizchaning ota-onasi Qodirjonning ota-onasining oldiga borishibdi. Qodirjonning oyisi: "Ha, nima gap?" -deb so'rabdi. Ular Qodirjonning qizchani urg'anini aytib berishibdi. Buni eshitgan Qodirjonning ota-onasi ulardan uzr so'rabdi. Qizchaning ota-onasi ketgandan so'ng Qodirjon rosa gap eshitdi. Oyisi va dadasi uni rosa koyishdi. Bu koyishdan keyin Qodirjon ikkinchi sho'xlik qilmaslikka va'da berdi.

## SHOSHQALOQ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda katta qishloq tomonda Baxtiyor degan bola yashagan ekan. U juda shoshqaloq ekan. Uning onasi biror ish buyursa, u yo'q demas edi. Lekin onasining gapi oxiriga yetmasdan, unga buyurilgan ishni qilishga oshiqadi, shoshqaloqlik qiladi. Natijada ishni o'lda-jo'lda bajaradi.

Bir kuni onasi: "Baxtiyorjon, jon bolam, do'kondan non olib kel", - degan edi, onasining bu so'zini eshitar-eshitmas chopib ketadi va yarim yo'ldan qaytib kelib: "Ona, nima degandingiz?" - deb so'raydi. Buni eshitgan onasi voy, voy, voy, bu odatingni qachon tugatasan desa, Baxtiyor indamadi. Oyisidan tanbeh eshetaverib, nohoyat, xatosini anglab yetdi. Buni ikkinchi qaytarmaslikka so'z berdi.

## SH E ' R L A R

### KUZ

Kuz keldi, sarg'aydi bog'lar,  
Kuz keldi qoraydi tog'lar,  
Maysalar, ko'katlar so'ldi,  
Gullar ham bir-bir to'kildi.

Qushlar uchib ketishar,  
Bizlarni tark etishar.  
Kuz kelsa erta agar,  
Uchib ketar laylaklar.

## TABIAT

Tabiat ham o'zgacha,  
Har bir fasl o'zgacha,  
Qishda oppoq rang olar,  
Bahor yam-yashil bo'lar.

Yozdir ko'm-ko'k va yashil,  
Kuz esa oltin fasl.  
Shu to'rta faslda ham,  
Yayrab o'ynaymiz biram.

**TONGDA**

Erta tongda turaman,  
Yuz-qo'llarim yuvaman.  
Nonushta tayyorlagan,  
Bubijonim sevaman.

**BOBOM**

Yuzida ajin qator,  
So'zlarida bor mador.  
Tunlari uxlamasdan,  
Ertak aytarlar qator.

## **BUVIMIZ**

Sochingiz oppoq qorday,  
So'zingiz asal, bolday.  
Ertaklami aytasiz,  
Bizni xushnud etasiz.

## **G'ÖZLAR**


Sizni juda sevamiz,  
Uyimizda boqamiz.  
Ko'rdik siz suzarkansiz,  
Baliqni tutarkansiz.

## OTLAR

Ot mehribon jonivor,  
 Tuyog'ida temir bor.  
 Odamlarga do'st, o'rtoq,  
 Ishonmasang minib boq.  
 Olisni yaqin qilar,  
 Har dam ko'makda bo'lар.

## KUMUSH QISH

Qish keldi yalong'ochlab qilichin,  
 Bolalar xursand bo'lishi uchin.  
 Qorbo'ron o'ynab, chang'i uchamiz,  
 Qorbobo yasab, surat tushamiz.



Alisher Navоfу  
 nomidagi  
 O'zbekiston MК

**ZUMRAD BAHOR**

Zumrad bahor keładi,  
Tarovati yeladi.  
Qizg'aldoqlar ochilib,  
Dilni xursand qiladi.

**TOTLI YOZ**

Mevalarga boydir yoz,  
Mevalarga boydir soz.  
Ariqda mazza qilib,  
Cho'milamiz miriqib,  
Quyosh nuri erkalar,  
Yoz menga juda yoqar.

---

**OLTIN KUZ**

Oltin kuz kelganda har choq,  
Sap-sariq bo'ladi gulbog'.  
Kelsa deyman har choq oltin kuz,  
Zarhal bo'lar kecha-yu kunduz.

**O'ZBEKISTON**

Yurtim, desam, O'zbekiston,  
Qalbim bo'lar bog'u bo'ston.  
Bulbul ham nomin eshitsa,  
Yangroq-yangroq kuylar shu on.

## GULLAR

Mening bog'dagi gullar,  
Chaman bc'lib ochildi.  
Tikanlari qo'llarimga  
Nina kabi sanchildi.

## KAPALAK

Kapalaklar turfa rang,  
Ko'z quvnatib uchadi.  
Hushiga to'yib qarang,  
Gulni sevib quchadi.



## **TOZA HAVO**

Toza havo bizga kerak,  
Simiramiz, shoddir yurak.  
Ona yurtim ko'rkam shunchalar,  
Toza havo, toza ko'chalar.

## **BAYRAM**

Bayram ko'pdır diyorimda,  
Yayrab o'ynar bolalar.  
Quvnoq qo'shiq kuylanar,  
Qirni qoplar lolalar.

**MAKTAB**

Quchog'ida yayrab o'sgaymiz,  
Maktab erur bilimlar koni.  
Gullatgaymiz ona yurtni,  
Bizda bordir o'qish imkoni.

**QUSHLAR OVOZI**

Olamni tutdiki, qushlar ovozi,  
Orzularim ular - yuksak parvozi.  
Tongda qushlar uchib o'tadi,  
Intilganlar orzusiga etadi.



## **MUNDARIJA**

### **Ertaklar**

Marvarid tomchilar T. Tillayev.....	3
Baxtiyorning jonivorlari.....	4
Xunarsiz kishi o'limga yaqin.....	5
Mushukchaning orzusi.....	7
Uchala do'st.....	8
Qodirjonning sho'xligi.....	10
Shoshqaloq.....	12

### **She'rlar**

Kuz.....	13
Tabiat.....	14
Tongda.....	15
Bobom.....	15
Buvimiz.....	16
G'ozlar.....	16
Otlar.....	17
Kumush qish.....	17
Zumrad bahor.....	18
Totli yoz.....	18
Oltin kuz.....	19
O'zbekiston.....	19
Gullar.....	20
Kapalak.....	20
Toza havo .....	21
Bayram.....	21
Maktab .....	22
Qushlar ovozi.....	22

*Adabiy-badiiy nashr*

**SHOHSANAM KOMILOVA**

**SEVINCH KAMALAGI**

**ERTAK VA SHE'RLAR**

Muharrir: *Z. Omonova*  
Texnik muharrir: *S. Musayev*  
Musahih: *S. Hojiyev*  
Kompyuterchi: *A. Murodov*

**IB № 0846**

Terishga 19.03. 2005 yilda berildi. Bosishga 23. 03 . 2005 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/32. Shartli bosma tabog'i 1,07 Shartli bo'yoq-ottisk 1,6. Nashr tabog'i 1,5. 43-2005-shartnoma. Buyurtma № 2061-2005. 250 nusxada. Erkin narxda.

**730018. Qarshi shahri, «Nasaf» nashriyoti, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.**

«Grafika» MCHJ. Mustaqillik shoh ko'chasi.